

## YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASH VA ULARGA VATANPARVARLIK HISSINI SINGDIRISH

**Adxamova Hurliqo Akmaljon qizi**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti 1-kurs Yurisprudensiya talabasi Telefon: +998918752114 E-mail: adxamovahurliqo@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Hozirgi kunda jamiyatda dolzarb muammo bolib kelayotgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularni qonunlarga bolgan hurmatini oshirish boyicha chora tadbirlarni olib borish jadal tarzda ketmoqda. Bundan bilishimiz mumkinki, bolalarni yoshligidan vatanparvarlik ruhida tarbiyalamoq kelajakda vatanini rivojlanishiga hissa qo'shuvchi yetuk shaxs bo'lib rivojlanishini ko'zda tutilmoqda.*

**Kalit so'zlar:** *Vatanparvarlik, qonun, muammo, davlat, jamiyat, shaxs, fuqaro, kadr, xalq, millat, kelajak.*

**Annotation:** *Nowadays, raising young people in the spirit of patriotism, which is becoming an urgent problem in the society, taking measures to increase their respect for laws is going on rapidly. From this we can know that it is planned to educate children in the spirit of patriotism from a young age so that they will develop into mature individuals who will contribute to the development of their country in the future.*

**Key words:** *Patriotism, law, problem, state, society, person, citizen, staff, people, nation, future.*

**Аннотация:** *В настоящее время быстрыми темпами происходит воспитание молодежи в духе патриотизма, что становится актуальной проблемой в обществе, принятие мер по повышению ее уважения к законам. Отсюда мы можем знать, что детей планируется воспитывать в духе патриотизма с юных лет, чтобы они выросли в зрелых личностей, которые в будущем внесут вклад в развитие своей страны.*

**Ключевые слова:** *Патриотизм, закон, проблема, государство, общество, человек, гражданин, коллектив, народ, нация, будущее.*

### KIRISH

Agar biz kelajak avlodni hozirdan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ularni qonunlarga bolgan hurmatini oshirish boyicha chora tadbirlarni olib borishni boshlasak kelajakda yetuk shaxs bo'lib rivojlanadi.

Vatanparvarlik insonning qon-qoniga singgan bo'lishi lozim. Shu o'rinda I.A.Karimovning: "Yurtga, Vatanga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob azaliy fazilatlarni asrab-avaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning munosib o'g'il-qizlari etib tarbiyalash masalasi ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning asosiy yo'nalishini tashkil etmog'i kerak", -degan so'zlari o'rinlidir. Har

bir insonning o'z vatani bo'lgandagina u haqiqiy vatanparvar bo'la oladi. Vatanparvarlik, o'zi tug'ilib o'sgan yurtini, yerini, elinie'zozlash, uning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy taraqqiyoti haqida qayg'urish, g'amxo'rlik qilish, taraqqiyotga o'zining munosib hissasini qo'shish, o'z davlati, mamlakatining mustaqilligini saqlash uchun jon kuydirishi va kerak bo'lganda unga o'z hayotini bag'ishlashidir.

Vatanparvarlik Vatan so'zi bilan chambarchas bog'langan bo'lib, Vatan, ana shu vatanparvarlikni paydo qiladi. Vatan so'zi arabcha so'z bo'lib, "ona yurt" ma'nosini bildiradi. Bu tushunchani ikki-keng va tor ma'nolarda tushunish mumkin. Kishi tug'ilib o'sgan uy, mahalla, qishloq nazarda tutilsa, bu tor ma'noda tushunishdir. Agar, bir xalq vakillari doimiy holda yashagan, ularning ajdodlari azal-azaldan istiqomat qilgan hudud nazarda tutilsa, uni keng ma'noda tushuniladi.

### **MUHOKAMA NATIJALARI**

Jamiyatimizda vatanparvarlik tarbiyasini baynalmilalchi-lik tarbiyasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Buning uchun tabiat muhofazasi katta material beradi. Shunga ko'ra vatanparvarlik tarbiyasini atrof tabiatni o'rganish bilan boshlash kerak. Bolalikdan yaqin bo'lgan jonajon o'lka tabiati inson uchun doimiy yo'ldir. Ayni paytda u "Vatan" to'g'risidagi keng tushunchaning tarkibiy elementidir.

O'lkashunoslik ishlari, maktab maydonchasidagi mehnat, ekskursiyalarda jonajon o'lkani o'rganish o'quvchilar xotirasida chuqur iz qoldiradi, o'z o'lkasiga muhabbatni mustahkamlaydi, uning boyliklarini qo'riqlash, ulardan oqilona foydalanish zarurligi to'g'risidagi ongni shakllantiradi. O'lka tabiati, uning boyliklari, xo'jalik xususiyatlari bilan tanishtirish o'quvchilarning sinfda olgan bilimlarini xalqning turmushi va mehnat faoliyati bilan bog'lashga yordam beradi. Masalan, "Foydali qazilmalar" va "Yer yuzi tabiatining xilma-xilligi" mavzulari (3-4 sinf "Tabiatshunoslik" darsliklari).

Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida o'quvchilar e'tiborini mamlakatimiz olimlarining fanni rivojlantirishdagi rolga qaratmoq, ularning vatanparvarligini, mehnatsevarligini, o'z xalqiga muhabbatini ta'kidlamog' zarur. Bu bolalarda tabiiy iftixor, buyuk namunalarga taqlid qilish xohishini vujudga keltiradi.

Vatan mavzusi butun Boshlang'ich tabiatshunoslik ta'limi orqali o'tib boriladi. Tabiat manzarasi faqat xalqning katta bunyodkorlik faoliyatini ko'rsatuvchi bo'lib xizmat qilishi kerak. Yagona intilish bilan o'z Vatani yana ham kuchli va qudratli qilishga jalb qilingan o'lkamiz xalqlarining hayotidan olingan aniq misollar o'quvchilarda vatanparvarlik va baynalmilalchilik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Respublikamiz xalqlarining do'stona oilasi to'g'risida (4- sinf "Tabiatshunoslik" darsligi) yorqin bo'yoqli ko'rgazmali qurollar bilan uyg'unlashgan o'qituvchi hikoyasi materialni hissiyot bilan qabul qilib olishga vatanparvarlik tuyg'ularini, dunyodagi barcha mehnatkashlarning irqi va millatiga qaramay bo'lajak hamkorligiga ishonchni ya'ni qardosh baynalmilalchilik tuyg'ularini tarbiyalashga yordam beradi.

Tabiatga muhabbat va uni saqlash hamda muhofaza qilishga intilishni tarbiyalash. Tabiatga muhabbat - katta va murakkab hissiyotdir. U yuqori ruhiy va

aqliy doiralarni o'z ichiga oladi. Bu hissiyotni tarbiyalashni bolalikning erta yoshidan boshlash kerak, chunki bolada "Jonajon tabiatga" muhabbat bilan birga jonajon o'lkaga, jonajon mamlakatga ko'ngil qo'yish o'sib boradi. Bolalikda tug'ilgan bu hissiyot yillarida rivojlanib va boyib boradi, bunga ma'lum darajada tabiatshunoslik yordam beradi, u tabiat go'zalligini qabul qilishgagina emas, balki uni muhofaza qilishga, boyliklarini ehtiyot qilib, oqilona foydalanishga, ularni faqat himoya qilibgina emas, balki ko'paytirishga o'rgatadi.maktab

O'lkamiz fuqarolari tabiatni ehtiyot qilishlari, uning boyligini muhofaza qilishlari kerak, degan iboraning ma'nosini tushuntira borib, uni M.Prishvinning: "Biz tabiatimizning egalari va biz uchun u - hayotning o'lkan qimmatbaho narsalari bilan to'lgan quyosh omboridir. Bu qimmatbaho boyliklarni muhofaza qilish yetarli emas, ularni kashf qilish va ko'rsatish kerak. Baliq uchun toza suv kerak - suv xavzalarini himoya qilishimiz kerak. O'rmonlarda, cho'llarda, tog'larda turlicha qimmatli hayvonlar bor - o'rmon, cho'l va tog'larimizni himoya qilaylik. Baliqqa - suv, qushga - havo, darrandaga - o'rmon, cho'l, tog'lar kerak, Insonga Vatan, tabiatni muxofaza qilish - demak Vatanni himoya qilish kerak" degan ajoyib so'zlari bilan mustahkamlash mumkin.

Tabiat muhofazasiga oid dekretlar jonli tabiatni tiklash va muhofaza qilishni nazarda tutgan. Chunonchi, 1920 yilning may oyida o'lkamizda birinchi bo'lgan Ilmen mineralogiya qo'riqxonasini tashkil qilish to'g'risida dekret chiqdi. Hozir dunyo bo'yicha 100 dan ortiq qo'riqxonalar va dahlsiz xo'jaliklar bor bo'lib, ulardan 11 tasi mamlakatimizda joylashgan. Bizning vaqtimizda noyob o'simliklar, hayvonlar, minerallar, shuningdek, suv, havo, odam atrofidagi barcha tabiiy muhit muhofaza qilish ob'ektlaridir.

Atrof muhitga ongli munosabatni tarbiyalash uchun birinchi sinfdan boshlaboq atrofdagi olam bilan tanishtirish bo'yicha mashg'ulotlarda (tabiiy xarakterdagi maqolani o'qilgandan keyin) bolalar oldiga amaliy vazifalar qo'yish zarur.

Ikkinchi sinfda shu fan bo'yicha bilimlar doirasi kengaytirilayotganda nazariy bilimlar, amaliy mashg'ulotlar (qishlovchi qushlarga yordam, yashil ko'chatlarni himoya qilish, erta gullovchi o'simliklarni qo'riqlash, hayvonlarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish) bilan bog'lanadi.

Uchinchi sinfda tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha odamlar mehnatiga alohida e'tibor beriladi.

To'rtinchi sinfda tabiat muhofazasi bo'yicha bilimlar quyidagi tartibda tizimga solinadi (muntazamlashadi): jonajon o'lka tabiati, Vatanimiz tabiati, insonning tabiatdan foydalanishi va uni qo'riqlashi. O'quvchilarni, tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunni bajarish - har bir kishining burchidir, degan xulosaga olib kelinadi. Muhimi shundaki, tabiatshunoslik darslari o'quvchilarni bilim bilan boyitibgina qolmasdan, balki Vatan uchun iftixor tuyg'ularini ham mustahkamlaydi.

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, kelajak avlodlarimizning yuksak ma'naviy qadriyatlarini tarbiyalash, ularning ijtimoiy-gumanitar fanlarning barcha jabhalarida muvaffaqiyat qozonishini ta'minlashda bilimli, malakali, fidoyi pedagoglarning ahamiyatini e'tirof etish zarur. Qolaversa, bu boradagi hamkorlikdagi sa'y-harakatlar yoshlarimizning har tomonlama yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqil davlatda ta'lim tizimini shakllantirish va rivojlantirish, millat taqdiri va kelajagini ta'minlashdan maqsad buyuk ajdodlarimizning mazmunli ijodi va o'gitlarida, ulardan saboqlarimizda mujassam bo'lgan ilmiy asoslar va amaliy yo'llarni talab etadi. hayotimizda qo'llaniladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 1-oktyabr 2020 yil.
2. "Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi." Husan Nishonov. Ma'rifat gazetasi. 19- oktyabr 2020 yil.
3. www.uza.uz.-O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiyot siyosat markazi rasmiy sayti. Мустаев, Р. Д. (2022). ИЗУЧЕНИЕ РЕЛЬЕФА МЕСТНОСТИ ПО КАРТЕ. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 100-121.
4. Мустаев, Р. Д., & Юсупов, Ш. Б. (2022). ТОПОГРАФИК ХАРИТА ХАҚИДА ТУШУНЧА. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 900-904.
5. Damirovich, M. R., & Saydaliyevich, U. S. (2022). POSITIONING NAVIGATION FROM SATELLITES TARGETING WITH TOOLS. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 978-983.
6. DAMIROVICH, M. R., IBRAGIMJANOVICH, T. I., & UGLI, K. N. K. (2021). The role of family, community and education in the development of patriotic spirit in youth. JournalNX, 7(1), 311-314.
7. Damirovich, R. M., Saydaliyevich, U. S., & Nosirkhonzoda, A. N. (2022). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL BASES OF PROFESSIONAL ADAPTABILITY IN FUTURE MILITARY SERVANTS. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 2(13), 462-465.